

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga uning turlari	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasini	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika oly o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida)	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'mni	377
I.Kirgizov	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbanova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'mni	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqaga o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'mni (Doira cholg'usi misolida)	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



УО'К: 37.0:378:004

**TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM
OLISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ**

**ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING
COMPETENCE IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION**

Abdumannopov Muhammadsohib Muhammayusuf o'g'li

Farg'ona davlat universiteti matematika kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqil ta'lif, mustaqil ish, talabalarining mustaqil ishi tushunchalarining mazmuni va mohiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'lif olish kompetensiyasini rivojlanish masalalari haqida so'z yuritigan bo'lib talabalarga bilim berish jarayonida chiqishi mumkin bo'lgan muammolar haqida to'xtalib o'tilgan. Hozirgi raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'lif soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lif olish, tanqidiy va ijodiy fikrflash, tizimli tahill qilish, tadbirdorlik ko'nikmalarini shakllantirish kunning asosiy vazifalari sifatida ko'rilyapti. Talabalarning o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish orqali mustaqil ta'lif olish kompetensiyalarni rivojlanish zarurligi hozirgi zamon talablaridan ekanligi ko'satib o'tilgan. Bu boreda o'quv jarayoniga xalqaro ta'lif standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish zarurligi va shu bo'yicha fikrlar keltirilgan. Hozirda O'zbekiston'dagi barcha davlat oliya ta'lif muassasalari kredit-modul tizimiga o'tganligi uchun barcha ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklarning o'quv rejalaridagi fanlarda mustaqil ta'limga ajratilgan soat umumiyoq soatning 50-60 foizini tashkil etadi. Bunga misol sifatida Boshlang'ich ta'lif yo'nalishini tanlab olinib fanlar soatlari izohlab ko'satib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье раскрыто содержание и сущность понятий самостоятельного обучения, самостоятельной работы, самостоятельной работы обучающихся. Также в условиях цифровизации образования были обсуждены вопросы развития самостоятельной учебной компетентности студентов, а также проблемы, которые могут возникнуть в процессе передачи знаний учащимся. В условиях современной цифровизации основными задачами дня видятся увеличение доли часов самостоятельного обучения, самостоятельное обучение студентов, критическое и творческое мышление, системный анализ, формирование предпринимательских навыков. Показано, что необходимость развития самостоятельных образовательных компетенций путем направления образовательного процесса студентов на формирование практических навыков является одним из требований современности. В связи с этим необходимо широко внедрять в учебный процесс передовые педагогические технологии, образовательные программы и учебно-методические материалы, основанные на международных образовательных стандартах, и представлены мнения по этому поводу. В настоящее время, когда все государственные высшие учебные заведения Узбекистана перешли на кредитно-модульную систему, часы, отведенные на самостоятельное обучение по предметам учебных программ всех образовательных направлений и специальностей, составляют 50-60 процентов от общего количества часов. В качестве примера выбран курс начального образования и объяснены часы предметов.

Abstract

This article describes the content and essence of the concepts of independent education, independent work, independent work of students. Also, in the conditions of digitization of education, the issues of developing students' independent learning competence were discussed, and the problems that may arise in the process of imparting knowledge to students were discussed. In the conditions of current digitization, increasing the share of independent education hours, students' independent education, critical and creative thinking, systematic analysis, and formation of entrepreneurial skills are seen as the main tasks of the day. It has been shown that the need to develop independent education competencies by directing the educational process of students to the formation of practical skills is one of the requirements of the present time. In this regard, it is necessary to widely introduce advanced pedagogical technologies, educational programs and teaching-methodical materials based on international educational standards into the educational process, and opinions on this are presented. Currently, as all state higher education institutions in Uzbekistan have switched to the credit-module system, the hours allocated to independent education in the subjects of

PEDAGOGIKA

the curricula of all educational directions and specialties make up 50-60 percent of the total hours. As an example, the primary education course is selected and the hours of subjects are explained.

Kalit so'zlar: ta'limdi raqamlashtirish, talabalar, mustaqil ta'limg, mustaqil ish, talabalarning mustaqil ishi, mustaqil ta'limg olish kompetensiyasi, tyutorlik, o'quv rejalar.

Ключевые слова: цифровизация образования, студенты, самостоятельное образование, самостоятельная работа, самостоятельная работа студентов, компетентность самостоятельного обучения, репетиторство, учебная программа.

Key words: digitization of education, students, independent education, independent work, independent work of students, independent learning competency, tutoring, curriculum.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limg tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da oliy ta'limdi tizimli isloq qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limdi modernizatsiya qilish va ilg'or ta'limg texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan.

Jumladan, Konsepsiya "mustaqil ta'limg soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'limg olish, tanqidiy va ijodiy fikrlesh, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalami kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'limg standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta'limg oluvchilarning mustaqil ta'limg olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzuksiz oshirish orqali mutaxassislarining zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Respublikamizda B.Ziyamuxamedov, J.G.Yo'idoshev, N.S.Sayidahmedov, O.Suvonov, H.Qarshiboyev singari olimlar tomonidan fanlarni o'qitishda mustaqil ta'limg va uni tashkil etish muammolari tahlil etilgan. Matematika fanining mazmuni va uni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari esa J.Ikromov, M.Barakayev, M.Tojiyev, N.R.G'aybullayev, T.Jo'rayev, F.Rajapov, G.V.Zlotskiy, G.Izetayeva, D.Yunusova, Y.U.Soatov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.[1,2]

MDH mamlakatlarda matematikani o'qitish metodikasini takomillashtirish borasida A.A.Stolyar, V.I.Mishin, G.I.Saransev, Y.I.Kalyagin, Y.N.Makarichev, oliy matematika fani mazmuni va uni o'qitish masalalari bo'yicha A.I.Slutskiy, A.S.Shumov, V.Y.Shneyder, G.N.Berman, S.Piskunov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijiy mamlakatlardan olimlaridan C.W.Cobb, G.Pimbley, P.H.Douglas, Dj.Dyui, I.F.Gerbard, Y.A.Komenskiy singari olimlarning asarlari ham ilmiy tadqiqot jarayonida o'rganildi va tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'limg jarayonini tashkil qilish muhim o'rinn tutadi. Hozirgi kunda o'quv rejalarda talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limg nisbati bakalavriat ta'limg yo'nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta'limg dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'limg orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'limg talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishidir[2, 3].

Mustaqil ta'limg - o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mustaqil ta'limg - olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

Mustaqil ish - o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limg faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq

faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faoliik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Ta'bir joiz bo'lsa, bo'lajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakat-faoliyat ularning asosini tashkil etadi. Talaba mustaqil fikri tug'ilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqil ta'limga talabalarga bilim berishda ularni o'z holiga tashlab qo'yib, ularga beriladigan topshiriq va yuklamalarni kamaytirish deb tushunmaslik kerak, balki o'qituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarining interaktiv mustaqil faoliyatidir. O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limga roli katta. Buni anglagan holda, yurtimiz olyi ta'limga muassasalarida o'quv mashg'ulotlariga ajratilayotgan mustaqil ta'limga soatlari ulushi muntazam oshirib borilmoqda. Talaba mustaqil ta'limga uning manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotganini tushunishi kerak. Aslida, talabaning mustaqil ishi degan tushuncha uning auditoriya va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligi ostida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi[2, 7].

Talabalarining mustaqil ishi (TMI) – bu talabaning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, u didaktik topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, o'qishga qiziqtirishga va muayyan fan sohasida bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan.

TMI mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faoliytni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'libadi.

TMI mazmuni fanning xususiyatidan, olyi o'quv yurtining texnik imkoniyatlardan va kutubxonaning o'quv-uslubiy ta'minlangandan kelib chiqib aniqlanadi. Odatda TMI talabaning mustaqil ta'limga (TMT) bilan birgalikda auditoriyadan tashqarida bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishini (O'RTMI) ham o'z ichiga oladi.

Kunduzgi ta'limga shaklida bakalavriatda TMI ning umumiyo soatlari fan hajmining yarmini tashkil etadi va uning ham deyarli yarmi O'RTMI ga 4 ajratiladi. Sirtqi ta'limga TMI hajmi fan hajmining 4/5 qismini tashkil etishi maqsadga muvofiq. TMIni tashkil qilish olyi o'quv yurtining asosiy meyoriy hujjatlari, jumladan ishchi o'quv dasturlari (sillabus), fan modullarini mustaqil o'rganish bo'yicha talablarga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

TMI quyidagi shakllarda joriy etilishi mumkin:

- talabaning bevosita o'zi tomonidan (mobil qurilmasi orqali) amalga oshiriladigan mustaqil ish turlari (TMT);
- an'anaviy shakldagi o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi;
- elektron shakldagi (mobil qurilmasi orqali) o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi.

Talabaning mustaqil ishini masofaviy tarzda tashkil qilishda iloji boricha uning qurilmasiga moslashish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda ko'pchilik talabalar android tizimida ishlovchi mobil qurilmalarga ega bo'lganliklari sababli m-learning tizimiga mos dasturlardan foydalanish talaba uchun har tomonlama qulay hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, talabalarining mustaqil ta'limga olishlari muammosi psixologlar, pedagoglar, didaktlar va metodistlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Ularning tadqiqotlari ta'limga oluvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil ta'limga didaktik maqsadlarini umumiyo ko'rinishda shakllantirishga imkon yaratadi.

Bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda talabalar bajariladigan ishlarni mustaqil rejalashtiradi hamda amalga oshiradi. Bunda quyidagi tezisga amal qilinadi: "Nimani o'rganishim kerak bo'lsa, buning barchasi menga nima uchun kerakligini bilaman", "Buni qayerda va qanday qo'llashni men bilaman". Bundan ko'rinish turibdiki, mustaqil ta'limga talabalarida aqliy mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Farg'ona davlat universiteti tomonidan 2023-yil 24-avgustda tasdiqlangan "Boshlang'ich ta'limga" ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorlash o'quv rejasi tahlil qilindi. Unga ko'ra barcha ta'limga yo'nalishlaridagi bakalavr tayyorlash o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilangan. Shundan auditoriya o'quv ishlari hajmi haftasiga 32 soat, qolgan qismi, ya'ni 22 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limga (shundan 12 soati mustaqil ish) olishga qaratilgan. Jami auditoriya o'quv yuklamasi 4352 soat, talaba mustaqil ta'limga 2992 soat ajratilgan bo'lib, umumiy

PEDAGOGIKA

o'quv yuklamaning 41% ini tashkil qiladi. Agar "Matematika o'qitish metodikasi" o'quv fanini oladigan bo'lsak, 288 saat auditoriya o'quv yuklamasi, mustaqil ta'limga 192 saat ajratilgan, ya'ni umumiyo soatlarning 50-60% ini tashkil etadi.

Bundan ko'rindiki, barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr tayyorlash o'quv rejasida talaba mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar umumiyo o'quv yuklamasi soatlarining o'rtacha 40-41% ini tashkil qiladi. Bu esa talabaning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishiga katta imkoniyat beradi.

Bugungi kunda o'qituvchidan talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish bo'yicha Davlat ta'lim standarti talabalarini bajarish uchun talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish, talabalar mustaqil ishlarning bajarilishini nazorat qilish uchun o'qituvchi va talabaning auditoriya hamda auditoriyadan tashqari ishlari me'yorlarini ishlab chiqish, mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha yangi avlod o'quv-uslubiy adabiyotlar ishlanmalarini yaratish talab qilinadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarkibiga kiruvchi modul texnologiyasi asosida masofaviy ta'lim platformasi talabalarning mustaqil ravishda bilimlarni egallashlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda "tyutorlik" tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish zarur. Tyutorlik tizimida talabaga o'quv fani bo'yicha nomuayyan davrda bilim, tushuncha va ko'nikmalar beriladi. Tyutorlik individual yoki jamoaviy shakllarda tashkil etilishi mumkin.

Talabalarning mustaqil ishi Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, fanning ishchi dasturi hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va o'quv-uslubiy majmua, uslubiy ko'rsatmalarning mazmuni bo'yicha aniqlanadi.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, mustaqil ish bir tomonidan faollikni, mustaqil ish tutishni, idrok etish, bilish, qiziqishlarni rag'batlantiruvchi, jadallashtiruvchi faoliyat turi, ya'ni mustaqil ta'limga asosi, kelgusida malaka oshirishga turki sifatida, boshqa tomonidan esa talabalarning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilishni ta'minlab beruvchi tadbirlar yoki pedagogik shartsharoitlar tizimi sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. Талабалар мустақил таълимими ташкил этиш [Матн] (2023) : методик кўплланма / Л. Зарипов, Н. Хайитов, З. Тоҳиров. – Тошкент: "Sano-Standart", – 32 б.
3. Кўчқаров М.У. Талабаларда мустақил таълим олиш кўнималарини ривожлантириш назарияси ва технологияси (2021) ("Олий математика" ўкув фани мисолида): п.ф.б.ф.д.(PhD) дисс. авт.еф. – Нукус, – Б. 5.
4. УХ Хонкулов, ММ Абдуманноров. (2020) Эҳтимолий статистик тушунчаларни ўқитишнинг методик имкониятларини тақомиллаштириш масалалари Namangan davlat universiteti ilmiy axborothnomasi. – Namangan.
5. UX Xonqulov, MM Abdumannopov (2022) Ehtimoliy-statistik tushunchalarni kompyuter texnologiyasidan foydalanib o'rganish imkoniyatlari, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 859-865.
6. UX Xonqulov, MM Abdumannopov (2022) Ehtimoliy-statistik tushunchalarni axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish, international conferences, 20-24, 2022.